



**TIQXMMI
MTU**
"TOSHKENT IRRIGATSİYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANİZATSİYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI"
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



FAN:

ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN
TA'SIRNI BAHOLASH (AMBTB)

MAVZU
06-1

MUQOBIL VARIANTLARNI
O'RGANISH



Razzakov Ruslan Ishqulovich




"Ekologiya va suv resurslarini boshqarish"
kafedrası katta o'qituvchisi



Reja:

- 1.Ekologik baholash va muqobil variantlarni o'rganish
- 2.Mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarining mavjud bo'lgan turlari



EKOLOGIK BAHOLASH VA MUQOBIL VARIANTLARNI O'RGANISH

- Mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishning turli xil variantlarini tahlil qilish va taqqoslash AMBTB ning muhim elementlaridan biridir.
- AMBTB jarayonida *muqobil variant* deganda, maqsadga erishishning bir-birini inkor qiluvchi usullari (yo'llari) tushuniladi

EKOLOGIK BAHOLASH VA MUQOBIL VARIANTLARNI O'RGANISH



Misol: «Bir mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish elektr energiyasi etishmovchiliga olib kelishi mumkin»

Ushbu vaziyatning alternativ echimi bo'yicha takliflar bering!

Ushbu vaziyatning echimi bo'yicha takliflar bering:

1. Elektr energiyasini tejash va undan samarali foydalanish tadbirlari
2. Turli tipdag'i (issiqlik, atom yoki gidroelektrostantsiya) elektrostantsiyalar qurish
3. Boshqa hududdan energiyani import qilish kabi bir necha

Ushbu yondashuvlarning kombinatsiyada qo'llanilishi xam mumkin (masalan, energiyani tejash va quvvati kamroq bo'lgan IESni qurish)

Misol 1:

«Sug'orma dexqonchilikning rivojlanishi suv tanqisligiga olib keldi»



Misol 2:

«Sug'orma dexqonchilikni rivojlanishi yer osti suvlari satxining ko'tarilishiga olib keldi»

Xar bitta misolga 4 tadan muqobil variant taklif qiling

EKOLOGIK BAHOLASH VA MUQOBIL VARIANTLARNI O'RGANISH

Qaror qabul qilish - mavjud variantlar orasidan tanlovnio'tkazishdan iboratdir.

- Tanlovda ko'rileyotgan variantlar **qanchalik sifatli tanlangan** va **ishlab chiqilgan**, ularni amalga oshirish oqibatlari **qanchalik to'liq aniqlangan**, ularni taqqoslash **qanchalik to'g'ri o'tkazilgan** bo'lsa **yakuniy natija (qaror) ham shunchalik sifatli** bo'ladi.

Odatda rejalshtirishning dastlabki bosqichlarida ko'rib chiqiladigan variantlar ixtiyoriy va tasodifiy bo'ladi. Mo'ljallanayotgan faoliyat xarakterini belgilaydigan **variantni tanlash** loyihalash jarayonining **boshlang'ich bosqichlarida manfaatdor tomonlarning ishtirokisiz amalga oshiriladi va hujjatlashtirilmaydi.**

EKOLOGIK BAHOLASH VA MUQOBIL VARIANTLARNI O'RGANISH

Bunda tanlash asosan faoliyat **tashabbuskorining shaxsiy manfatidan kelib chiqib, iqtisodiy va texnik mezonlar asosida amalgamoshiriladi.**

Mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini ko'rib chiqishni AMBTB jarayoniga kiritishdan **maqsad:**

-ularni baholash va taqqoslashni bir tartibga solish -manfaatdor tomonlar uchun tushunarli qilish.

-optimal variantlarini tanlashda ekologik mezonlarni hisobga olishni ta'minlashdan iboratdir.

EKOLOGIK BAHOLASH VA MUQOBIL VARIANTLARNI O'RGANISH

Mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish:

- qaror qabul qilishda **AMBTB natijalaridan foydalanishga** yana bir imkoniyat yaratadi. Bu imkoniyat taqqoslash asosida **maqbul variantni tanlashdan** iboratdir.
- mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini ko'rib chiqish ta'sirlarning ahamiyatliligi va maqbulligini baholashda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, **AMTBni sifatli bajarish uchun mo'ljallanayotgan faoliyatning bir nechta muqobil variantlarini ko'rib chiqish va ulardan ba'zilarini etarli darajada chuqur o'rghanish muhim ahamiyatga ega.**



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDİSLARI İNSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!